

III. TOSHKENT VILOYATIDA QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI


2025- yil yanvar-iyun

1. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
2. Toshkent viloyati qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi tuman (shahar)lar kesimida
3. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish
4. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
5. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar

1. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2025- yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi **19 760,2** mlrd so‘mni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – **19 032,8** mlrd so‘mni, o‘rmon xo‘jaligi – **597,0** mlrd so‘mni, baliqchilik xo‘jaligi – **130,4** mlrd so‘mni tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Toshkent viloyatining ulushi **10,1** % ni tashkil etdi.

Toshkent viloyatida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘sish sur‘ati



2. Toshkent viloyati qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi tuman (shahar)lar kesimida

2025- yilning yanvar-iyun oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Bekobod (*1 976,2 mlrd so‘m*), Bo‘stonliq (*1 516,7 mlrd so‘m*) va O‘rta Chirchiq (*1 496,4 mlrd so‘m*) tumanlarida qayd etildi.


Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Yangiyo‘l (16,6 mlrd so‘m), Ohangaron (22,9 mlrd so‘m) va Olmaliq (45,2 mlrd so‘m) shaharlarini keltirib o‘tish mumkin.

	Hajm mlrd so‘m	O‘shish sur‘ati, % da	Hududning ulushi, % da
Toshkent viloyati	19 760,2	104,3	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	50,4	102,1	0,3
Olmaliq	45,2	108,0	0,2
Angren	270,4	102,2	1,4
Bekobod	191,3	102,3	1,0
Ohangaron	22,9	101,9	0,1
Chirchiq	72,0	105,4	0,4
Yangiyo‘l	16,6	112,0	0,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo‘rg‘on	1 270,4	104,3	6,5
Ohangaron	818,5	104,2	4,2
Bekobod	1 976,2	104,8	10,1
Bo‘stonliq	1 516,7	104,1	7,7
Bo‘ka	1 421,0	104,3	7,2
Quy Chirchiq	1 243,8	104,5	6,3
Zangiota	1 156,5	104,1	5,9
Yuqori Chirchiq	1 368,1	104,3	7,0
Qibray	1 135,6	104,2	5,8
Parkent	834,4	104,0	4,3
Piskent	1 205,9	104,1	6,1
O‘rta Chirchiq	1 496,4	104,4	7,6
Chinoz	1 208,2	104,3	6,2
Yangiyo‘l	1 291,5	104,7	6,6
Toshkent	1 004,1	104,5	5,1

Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati tahlil qilinganda, yuqori o‘shish sur‘atlari Yangiyo‘l (112,0%), Olmaliq (108,0%), Chirchiq (105,4%) shaharlari va Bekobod (104,8%) tumanida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Ohangaron (101,9%), Nurafshon (102,1%) va Angren (102,2%) shaharlarida o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarish pastligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati



3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish

2025- yilning yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **19 032,8** mlrd so'mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan **104,3** % ni, shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari **6 089,6** mlrd so'mni (**105,4** %), chorvachilik mahsulotlari **12 576,2** mlrd so'mni (**103,7** %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Bekobod (*1 911,2 mlrd so'm*), Bo'stonliq (*1 483,8 mlrd so'm*), O'rta Chirchiq (*1 406,5 mlrd so'm*) va Bo'ka (*1 371,9 mlrd so'm*) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Yangiyo'l (*15,4 mlrd so'm*), Ohangaron (*22,8 mlrd so'm*) va Olmalik (*39,3 mlrd so'm*) shaharlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'ati Yangiyo'l (**112,3** %), Nurafshon (**108,8** %), Chirchiq (**105,3** %) shaharlari va Bekobod (**104,7** %) tumanida qayd etildi. Angren (**101,9** %), Nurafshon (**102,0** %) va Ohangaron (**102,0** %) shaharlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish


Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Bekobod (951,4 mlrd so'm), Chinoz (576,2 mlrd so'm), Toshkent (534,7 mlrd so'm), Quyi Chirchiq (471,7 mlrd so'm) va Oqqo'rg'on (455,4 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha nisbatankam hajm Yangiyo'l (3,1 mlrd so'm), Ohangaron (2,4 mlrd so'm) va Olmaliq (7,7 mlrd so'm) shaharlarida qayd etildi.

Yuqori o'sish sur'atlari Olmaliq (192,2%), Yangiyo'l (197,6%), Chirchiq (126,3%), Angren (111,2%) shaharlari va Ohangaron (116,8%) tumanida qayd etildi. Nurafshon (75,4%), Ohangaron (99,7%) shaharlari va Toshkent (95,0%) tumanida esa o'tgan yilga nisbatan o'zgarish pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan donlar hajmi

	Tonna	O'sish sur'ati, % da	Hududning ulushi, % da
Toshkent viloyati	446 910	105,3	100,0
<i>shaharlar</i>			
Nurafshon	127	76,7	0,03
Olmaliq	0	0,0	0,00
Angren	10	38,2	0,01
Bekobod	9	112,5	0,00
Ohangaron	2	105,3	0,00
Chirchiq	0,3	150,0	0,00
Yangiyo'l	171	105,7	0,04
<i>tumanlar</i>			
Oqqo'rg'on	15 072	106,9	9,8
Ohangaron	68 127	108,8	3,4
Bekobod	4 510	101,2	15,2
Bo'stonliq	52 065	115,0	1,0
Bo'ka	15 072	107,2	11,6
Quyi Chirchiq	61 661	100,6	13,8
Zangiota	5 730	111,4	1,3
Yuqori Chirchiq	31 231	100,6	7,0
Qibray	8 075	114,5	1,8
Parkent	1 358	114,6	0,3
Piskent	37 417	100,0	8,4
O'rta Chirchiq	43 035	115,0	9,6
Chinoz	47 563	110,3	10,6
Yangiyo'l	19 018	106,7	4,3
Toshkent	7 908	101,6	1,8

Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalaribo'yicha taqsimlanishi




Yetishtirilgan don umumiy hajmining eng yuqori ulushi Bekobod (15,2%), Quyi Chirchiq (13,8%), Bo'ka (11,6%), Chinoz (10,6%), va Oqqo'rg'on (9,8%) tumanlariga to'g'ri keldi. Past ko'rsatkichlar Nurafshon (0,03%), Yangiyo'l (0,04%) shaharlari va Bo'stonliq (1,0%) tumanida kuzatildi.

2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Chirchiq shahar (150,0%), Bo'stonliq (115,0%), O'rta Chirchiq (115,0%), Parkent (114,6%), Qibray (114,5%) va Zangiota (111,4%) tumanlarida qayd etildi.

Kartoshka mahsulotini yetishtirish

Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalaribo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida yetishtirilgan kartoshka hajmi

	Tonna	O'sish sur'ati, % da	Hududning ulushi, % da
Toshkent viloyati	149 722	102,7	100,0
<i>shaharlar</i>			
Nurafshon	585	100,5	0,4
Olmaliq	71	200,6	0,05
Angren	473	105,9	0,3
Bekobod	2 858	101,4	1,9
Ohangaron	111	108,5	0,1
Chirchiq	449	112,8	0,3
Yangiyo'l	58	116,2	0,04
<i>tumanlar</i>			
Oqqo'rg'on	5 871	107,3	3,9
Ohangaron	2 130	106,0	1,4
Bekobod	13 004	101,1	8,7
Bo'stonliq	20 536	101,5	13,8
Bo'ka	4 674	104,6	3,1
Quyi Chirchiq	22 003	100,1	14,7
Zangiota	4 834	106,2	3,2
Yuqori Chirchiq	7 417	104,2	4,9
Qibray	8 444	102,9	5,6
Parkent	2 621	110,1	1,7
Piskent	14 258	100,9	9,5
O'rta Chirchiq	7 739	111,3	5,2
Chinoz	8 769	102,8	5,8
Yangiyo'l	11 737	100,3	7,9
Toshkent	11 080	103,6	7,4


Yetishtirilgan kartoshka umumiy hajmining eng yuqori ulushi Bo'stonliq (13,7%), Quyi Chirchiq (14,7%), Piskent (9,5%), Bekobod (8,7%), va Yangiyo'l (7,8%) tumanlariga to'g'ri keldi. Past ko'rsatkichlar Ohangaron (0,1%), Yangiyo'l (0,04%) va Olmaliq (0,05%) shaharlarida kuzatildi.

2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Olmaliq (2,0 m.), Ohangaron (108,5 %), Yangiyo'l (116,2 %), Chirchiq (112,8 %) shaharlarida va O'rta Chirchiq (111,3 %) tumani qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	Tonna	O'sish sur'ati, % da	Hududning ulushi, % da
Toshkent viloyati	374 506	103,6	100,0
<i>shaharlar</i>			
Nurafshon	224	211,6	0,1
Olmaliq	411	347,8	0,1
Angren	294	153,8	0,1
Bekobod	29	228,3	0,0
Ohangaron	131	97,8	0,0
Chirchiq	1 061	122,6	0,3
Yangiyo'l	224	311,1	0,1
<i>tumanlar</i>			
Oqqo'rg'on	31 372	100,9	8,4
Ohangaron	7 741	124,4	2,1
Bekobod	80 613	100,3	21,6
Bo'stonliq	17 489	101,0	4,7
Bo'ka	16 666	102,9	4,4
Quyichirchiq	21 444	104,9	5,7
Zangiota	21 837	107,5	5,8
Yuqori Chirchiq	20 136	100,8	5,4
Qibray	21 763	105,7	5,8
Parkent	8 697	104,6	2,3
Piskent	18 913	111,0	5,0
O'rta Chirchiq	13 492	102,7	3,6
Chinoz	39 424	100,6	10,5
Yangiyo'l	16 173	105,9	4,3
Toshkent	36 372	105,4	9,7

Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalaribo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Bekobod (21,5%), Toshkent (9,7%), Chinoz (10,5%), Oqqo'rg'on (8,4%), va Zangiota (5,8%) tumanlariga to'g'ri keldi. Past ko'rsatkichlar Nurafshon (0,1%), Yangiyo'l (0,1%) va Angren (0,1%) shaharlarida kuzatildi.

2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Olmaliq (3,0 m.), Yangiyo'l (3,0 m.), Bekobod (2,0 m.), Nurafshon (2,0 m.), Angren (153,8%) shaharlarida va Ohangaron (124,4%) tumanida qayd etildi.

Poliz mahsulotini yetishtirish

Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalaribo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Hududlar kesimida yetishtirilgan polizlar hajmi

	Tonna	O'sish sur'ati, % da	Hududning ulushi, % da
Toshkent viloyati	5 995	105,0	100,0
<i>shaharlar</i>			
Nurafshon	0	0,0	0,0
Olmalik	1	0,0	0,02
Angren	0	0,0	0,0
Bekobod	0	0,0	0,0
Ohangaron	0	0,0	0,0
Chirchiq	0	0,0	0,0
Yangiyo'l	0	0,0	0,0
<i>tumanlar</i>			
Oqqo'rg'on	828	101,6	13,8
Ohangaron	0	0,0	0,0
Bekobod	677	106,3	11,3
Bo'stonliq	0	0,0	0,0
Bo'ka	1 042	103,7	17,4
Quyi Chirchiq	94	100,2	1,6
Zangiota	171	110,3	2,9
Yuqori Chirchiq	12	12,0 m.	0,2
Qibray	49	113,5	0,8
Parkent	65	116,8	1,1
Piskent	278	111,9	4,6
O'rta Chirchiq	70	101,4	1,2
Chinoz	410	101,0	6,8
Yangiyo'l	2 204	105,1	36,8
Toshkent	94	114,2	1,6


Yetishtirilgan poliz umumiy hajmining eng yuqori ulushi Yangiyo'l (36,8%), Bo'ka (17,4%), Oqqo'rg'on (13,8%), Bekobod (11,3%), va Chinoz (6,8%) tumanlariga to'g'ri keldi. Past ko'rsatkichlar Yuqori Chirchiq (0,2%), Qibray (0,8%) va Parkent (1,1%) tumanlarida kuzatildi.

2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlari Yuqori Chirchiq (12,0 m.), Parkent (116,8%), Toshkent (114,2%), Qibray (113,5 %) va Zangiota (110,3 %) tumanlarida, qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan meva va rezavorlar hajmi

	Tonna	O‘shish sur‘ati, % da	Hududning ulushi, % da
Toshkent viloyati	46 096	104,4	100,0
<i>shaharlar</i>			
Nurafshon	421	108,8	0,9
Olmaliq	277	109,4	0,6
Angren	804	109,0	1,7
Bekobod	1 318	102,6	3,0
Ohangaron	85	98,8	0,2
Chirchiq	165	133,0	0,4
Yangiyo‘l	42	132,1	0,1
<i>tumanlar</i>			
Oqqo‘rg‘on	1 690	106,1	4,0
Ohangaron	1 170	114,5	2,5
Bekobod	857	104,9	1,8
Bo‘stonliq	4 313	101,7	9,3
Bo‘ka	2 296	105,1	5,0
Quyi Chirchiq	1 919	92,3	4,1
Zangiota	3 480	107,7	7,4
Yuqori Chirchiq	3 696	100,6	8,0
Qibray	4 862	100,4	10,4
Parkent	4 069	104,2	8,7
Piskent	1 702	102,4	3,6
O‘rta Chirchiq	1 820	103,1	3,9
Chinoz	2 359	102,6	5,0
Yangiyo‘l	4 323	114,5	9,2

Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalaribo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

Yetishtirilgan meva va rezavorlar umumiy hajmining eng yuqori ulushi Qibray (10,4%), Toshkent (9,5%), Yangiyo'l (9,2%), Bo'stonliq (9,2%), Parkent (8,7%) va Zangiota (7,4%) tumanlariga to'g'ri keldi. Past ko'rsatkichlar Ohangaron (0,2%), Yangiyo'l (0,1%) va Chirchiq (0,01%) shaharlarida kuzatildi.

2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Chirchiq (133,0%), Yangiyo'l (132,1%), Olmaliq (109,4%), Angren (109,0%) va Nurafshon (108,8%), shahlarida qayd etildi.

Uzum mahsulotini yetishtirish

Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalaribo'yicha taqsimlanishi



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar


Hududlar kesimida yetishtirilgan uzumlar hajmi

	Tonna	O'sish sur'ati, % da	Hududning ulushi, % da
Toshkent viloyati	1 360	101,7	100,0
<i>shaharlar</i>			
Nurafshon	113	41,6	8,2
Olmaliq	18	0,0	1,3
Angren	5	40,0	0,4
Bekobod	0	0,0	0,0
Ohangaron	2	107,1	0,1
Chirchiq	0	0,0	0,0
Yangiyo'l	2	0,0	0,1
<i>tumanlar</i>			
Oqqo'rg'on	9	123,7	0,8
Ohangaron	14	335,7	1,0
Bekobod	2	0,0	0,2
Bo'stonliq	13	104,8	1,0
Bo'ka	375	107,5	27,2
Quyi Chirchiq	33	100,0	2,4
Zangiota	0	0,0	0,0
Yuqori Chirchiq	30	0,0	2,2
Qibray	99	157,4	7,2
Parkent	313	84,6	23,0
Piskent	266	174,6	19,4
O'rta Chirchiq	15	100,0	1,2
Chinoz	43	103,6	3,2
Yangiyo'l	8	200,0	1,0
Toshkent	0	0,0	0,0

Yetishtirilgan uzum umumiy hajmining eng yuqori ulushi Bo'ka (27,2%), Parkent (22,8%), Piskent (19,3%) tumanlariga to'g'ri keldi. Past ko'rsatkichlar Ohangaron (0,1%), Yangiyo'l (0,1%) va Angren (0,4%) shaharlarida kuzatildi.

2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Ohangaron (3,0 m.), Yangiyo'l (2,0 m), Piskent (174,6%), Qibray (157,4%), Oqqo'rg'on (123,7%), Bo'ka (107,5%), Bo'stonliq (104,8%) tumanlari, Ohangaron (107,1%) shahrida qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 75,9 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 11,9 foizi fermer xo'jaliklariga, 12,2 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Bo'stonliq (1 210,9 mlrd so'm), O'rta Chirchiq (1 054,1 mlrd so'm), Bekobod (959,8 mlrd so'm), Yuqori Chirchiq (956,3 mlrd so'm) va Bo'ka (949,5 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Yangiyo'l (12,3 mlrd so'm), Ohangaron (20,5 mlrd so'm) va Olmaliq (31,6 mlrd so'm) shaharlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Nurafshon shahar (118,3 %), Bekobod (107,8 %), Pisken (106,1 %), Yuqori Chirchiq (105,8 %) tumanlarida qayd etildi. Chinoz tuman (98,0 %), Olmaliq (96,6 %), Yangiyo'l (100,4 %) va Angren (101,3 %) shaharlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025- yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 163,4 ming tonna go'sht, 520,0 ming tonna sut, 707,1 mln dona tuxum va 5,4 ming tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **102,3** % ni, sog'ib olingan sut – **103,0** % ni, olingan tuxum – **114,7** % ni hamda ovlangan baliqlar – **107,4** % ni tashkil qildi.

2025- yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan **1,8** foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, **79,9** foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, **18,3** foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.

Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning **5,0** foizi fermer xo'jaliklari, **90,0** foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari, **5,0** foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

2025- yil yanvar-iyun oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar

	Yanvar-iyun 2025- y.	O'sish sur'ati, % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	163,4	102,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2,9	72,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	130,4	102,5
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	30,1	105,3
Sut, ming tonna	520,0	103,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	26,0	103,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	467,8	102,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	26,2	116,3
Tuxum, mln dona	707,1	114,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1,0	173,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	361,8	100,9
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	344,3	133,9
Jun, tonna	964,0	105,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	226,0	118,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	697,0	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	41,0	146,4
Baliq, ming tonna	5,4	107,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	0,6	126,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	0,03	3,0 m.
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	4,8	105,1

Shu bilan birga, olingan tuxumning **0,1** foizi fermer xo‘jaliklariga, **51,4** foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **48,5** foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keldi.

O‘z navbatida, ovlangan baliqlarning **10,1** foizi fermer xo‘jaliklariga, **0,6** foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, **89,3** foizi qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelganligini qayd etish lozim.

Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	<i>Go'sht (tirik vaznda), tonna</i>	<i>Sut, tonna</i>	<i>Tuxum, ming dona</i>
Toshkent viloyati	163 415	520 023	707 096
<i>shahar</i>			
Nurafshon	512	1 301	746
Olmalik	315	2 076	646
Angren	3 275	4 916	1 058
Bekobod	2 597	936	1 752
Ohangaron	195	1 402	696
Chirchiq	565	3 861	3 873
Yangiyo‘l	63	1 343	404
<i>tumanlar</i>			
Oqqo‘rg‘on	9 887	29 096	15 639
Ohangaron	7 798	27 794	57 983
Bekobod	11 750	41 737	18 860
Bo‘stonliq	15 484	62 249	24 903
Bo‘ka	11 504	42 514	17 941
Quyichirchiq	9 139	28 840	32 114
Zangiota	10 945	27 172	79 830
Yuqori Chirchiq	12 625	38 580	95 856
Qibray	8 809	33 572	129 877
Parkent	7 129	37 875	19 103
Piskent	8 998	29 647	25 454
O‘rta Chirchiq	15 714	29 082	72 787
Chinoz	7 018	24 568	17 779
Yangiyo‘l	14 141	31 284	52 725
Toshkent	4 952	20 178	37 070

4. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025- yilning 1- iyul holatiga barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni **979,2** ming boshga yetdi (*o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,7 % ga ko‘p*), sigirlar - **419,1** ming boshga (*1,5 % ga ko‘p*), qo‘y va echkilar – **1 114,0** ming boshga (*1,8 % ga ko‘p*), parrandalar – **17 139,6** ming boshga (*1,0 % ga ko‘p*) yetdi.

2025- yilning 1- iyul holatiga xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O‘sish sur‘ati
Yirik shoxli qoramollar	979,2	102,7
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	85,0	100,0
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	829,0	101,9
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	65,2	118,5
shundan sigirlar	419,1	101,5
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	26,2	100,8
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	375,4	101,5
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	17,5	103,5
Qo‘y va echkilar	1 114,0	101,8
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	321,7	100,4
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	694,7	101,2
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	97,6	111,0
Otlar	56,2	101,0
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	10,5	104,1
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	42,0	100,0
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,7	105,1
Parrandalar	17 752,6	106,4
shu jumladan:		
fermer xo‘jaliklari	196,5	102,0
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	8 749,8	100,5
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	8 806,3	113,2

2025- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 8,6 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 84,8 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 6,2 foizi fermer xo'jaliklariga, 89,7 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 4,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 28,5 foizi fermer xo'jaliklariga, 62,8 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 1,1 foizi fermer xo'jaliklariga, 49,5 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 49,4 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2025- yilning 1- iyul holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Toshkent viloyati	979 248	1 113 966	17 752 610
<i>shaharlar</i>			
Nurafshon	4 212	4 316	7 953
Olmaliq	3 861	7 882	14 054
Angren	15 035	21 593	31 676
Bekobod	5 407	10 934	27 002
Ohangaron	5 920	2 541	12 253
Chirchiq	1 734	7 339	62 380
Yangiyo'l	1 685	1 036	5 570
<i>tumanlar</i>			
Oqqo'rg'on	65 058	39 678	223 791
Ohangaron	74 184	268 773	1 342 934
Bekobod	80 794	42 323	297 328
Bo'stonliq	81 502	161 352	2 222 244
Bo'ka	77 650	68 119	532 837
Quyi Chirchiq	52 181	16 929	688 994
Zangiota	49 130	23 823	3 980 140
Yuqori Chirchiq	64 984	39 720	1 740 078
Qibray	48 930	33 285	1 920 681
Parkent	59 877	124 720	335 177
Piskent	64 945	83 392	357 123
O'rta Chirchiq	61 068	52 989	1 563 435
Chinoz	59 951	35 349	494 602
Yangiyo'l	68 124	51 161	1 144 747
Toshkent	33 016	16 712	747 611

5. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi boʻyicha uslubiy tushuntirishlar

Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada oʻz isteʼmoli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xoʻjaligida, oʻrmonchilik va yogʻoch tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xoʻjaliklarida, dehqon va tomorqa xoʻjaliklarida hamda qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xoʻjaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xoʻjaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xoʻjaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shugʻullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xoʻjaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xoʻjaligi boshligʻiga berilgan yer uchastkasida qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xoʻjaligi aʼzolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xoʻjalikdir.

Tomorqa xoʻjaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bogʻliq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xoʻjaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xoʻjalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xoʻjalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xoʻjalik toifalari boʻyicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini oʻz ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qoʻy va echkilar, choʻchqalar va h.k.)

Goʻsht yetishtirish – soʻyish uchun sotilgan hamda oʻz xoʻjaligida soʻyilgan barcha turdagi qishloq xoʻjaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini oʻz ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sogʻib olingan sut va ogʻiz sutini qoʻshgan holda, haqiqatda sogʻib olingan sigir, echki, qoʻy, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sogʻib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda joʻja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini oʻz ichiga oladi.